

BANKLAR VA ULARNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Abduvaxobov Shaxzod Xolmo'min o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Bank ishi kafedrasi assistenti,

Shodiyorov Doniyor

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada banklar tizimining mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Banklar moliyaviy vositachi sifatida investitsion loyihalarni moliyalashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada tijorat banklarining real sektor bilan o'zaro aloqasi, bank xizmatlari ko'laming kengayishi va innovatsion moliyaviy mahsulotlarning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi mexanizmlar ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari bank tizimi orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishning samarali yo'llarini olib beradi.

Kalit so'zlar: bank tizimi, iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy vositachilik, investitsiya, tijorat banklari, pul-kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, innovatsion xizmatlar.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy tizimda banklar iqtisodiyotning ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular moliyaviy resurslarni toplash, ularni samarali taqsimlash va real sektor subyektlariga yetkazib berish orqali iqtisodiy faollikni oshiradi. Iqtisodiyotning turli sohalari, xususan, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sektori va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi bevosita bank tizimi barqarorligiga va uning faoliyat samaradorligiga bog'liq. Banklar nafaqat kredit va depozit amaliyotlarini amalga oshiradi, balki investitsiyalarni jalg etish, to'lov tizimlarini rivojlantirish, inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Mazkur maqolada bank tizimining asosiy funksiyalari, ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi vazifalari, shuningdek, banklar va davlat siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Shu orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashda bank sektorining o'rni chuqurroq olib beriladi.

Asosiy qism. Bank tizimi har qanday mamlakat iqtisodiyotining qon aylanish tizimiga o'xshaydi. Mamlakatda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqa iqtisodiy faoliyatlar to'laqonli amalga oshishi uchun moliyaviy resurslar zarur bo'ladi. Ushbu

resurslarni to‘plash va taqsimlashda banklar vositachi sifatida ishtirok etadi. Banklar aholi va xo‘jalik yurituvchi subyektlardan erkin pul mablag‘larini depozit shaklida yig‘ib, ularni kredit ko‘rinishida boshqa subyektlarga taqdim etadi. Bu orqali ular iqtisodiy jarayonlarning muvozanatli va uzlusiz ishlashini ta’minlaydi. Eng avvalo, banklarning kreditlash faoliyati iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmining oshishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, eksport salohiyatining kengayishi ko‘pincha bank kreditlaridan oqilona foydalanish bilan bog‘liq. Masalan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ko‘plab hollarda banklardan olgan kreditlar evaziga o‘z faoliyatini boshlaydi yoki kengaytiradi. Bu esa o‘z navbatida soliq tushumlarining oshishiga, bandlik darajasining ko‘tarilishiga va aholi daromadlarining o‘sishiga olib keladi.

Banklar shuningdek investitsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pgina sanoat loyihalarini amalga oshirishda, ayniqsa, yirik infratuzilma ob’ektlarini qurishda tijorat banklarining ishtiroki zarur bo‘ladi. Ular uzoq muddatli kreditlar, lizing, kafillik va boshqa moliyaviy xizmatlar orqali investitsiyalarini rag‘batlantiradi. Shu tariqa, banklar kapital oqimlarini to‘g‘ri yo‘naltirish orqali iqtisodiyotda resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, banklar moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi muhim institutlar hisoblanadi. Mamlakatda bank tizimi qanchalik rivojlangan bo‘lsa, iqtisodiyotdagি moliyaviy muvozanat ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Bank xizmatlarining diversifikatsiyasi ham iqtisodiy o‘sishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, chekka hududlardagi aholi uchun qulay va tezkor moliyaviy xizmatlar ko‘rsatilishi mintaqaviy iqtisodiy tenglikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Banklar orqali amalga oshiriladigan eksport-import operatsiyalari ham tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Xalqaro banklar bilan hamkorlik, akkreditivlar, transchegaraviy to‘lovlar, valutani ayriboshlash operatsiyalari eksportchilar va importchilarga qulay shart-sharoit yaratadi. Bu esa mamlakat savdo salohiyatini oshirib, global iqtisodiyotga integratsiyani jadallashtiradi. Biroq bank tizimining iqtisodiyotdagи o‘rni faqat moliyaviy vositachilik bilan cheklanmaydi. Ular davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda ham faol ishtirok etadi. Masalan, ipoteka kreditlari, ta’lim kreditlari, qishloq xo‘jaligi uchun ajratiladigan imtiyozli kreditlar orqali aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, banklar korporativ boshqaruv va moliyaviy intizomni shakllantirishda ham muhim omil hisoblanadi. Banklar kredit ajratishda mijozning moliyaviy holatini tahlil qiladi, biznes-rejalarini baholaydi, kredit resurslaridan maqsadli foydalanishini nazorat qiladi.

O‘zbekiston misolida olib qaralganda, so‘nggi yillarda bank tizimining isloh qilinishi, bank xizmatlari bozorining liberallashuvi, xorijiy bank kapitalining jalb etilishi va raqamli bank xizmatlarining kengayishi milliy iqtisodiyotga ijobjiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli transformatsiya orqali bank xizmatlari yanada tezkor, shaffof va samarali bo‘lib bormoqda. Banklar iqtisodiyotni rivojlantirishda ko‘p qirrali va murakkab rolni bajaradi. Ular kapitalni to‘plash va taqsimlash, investitsiyani moliyalashtirish, tadbirkorlikni rag‘batlantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, pul-kredit siyosatini amalga oshirish kabi asosiy yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi. Bank tizimi qanchalik barqaror va rivojlangan bo‘lsa, mamlakat iqtisodiyoti ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Banklar faqatgina iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar emas, balki iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda, moliyaviy savodxonlikni oshirishda va jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlashda strategik ahamiyatga ega institutlar sifatida ko‘rilmoxda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, bank sektorining innovatsion yondashuvlarga ochiqligi, texnologik infratuzilmaning rivoji va mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlar tizimi mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bank aktivlari hajmi, kredit portfeli sifati, daromadli mahsulotlar ulushi va mijozlar bilan ishslash sifati orqali mamlakat iqtisodiyotining umumiy holatini tahlil qilish mumkin. Ushbu ko‘rsatkichlar asosida iqtisodiyotni barqarorlashtirishga qaratilgan davlat strategiyalari ishlab chiqiladi va mos ravishda moliyaviy reguliyatsiyalar kuchaytiriladi. Mamlakatda yoshlar va xotin-qizlar uchun imtiyozli kredit liniyalarini yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu nafaqat ijtimoiy tenglikni mustahkamlash, balki iqtisodiy faollilikni kengaytirishning samarali vositasi hisoblanadi. Shuningdek, banklar mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda ham alohida rol o‘ynaydi. Aholi kam yashaydigan yoki iqtisodiyoti sust rivojlangan hududlarda bank xizmatlarining mavjudligi, bank filiallari va mini-banklar orqali aholiga yaqinlashtirilgan xizmatlar tarmog‘i mahalliy iqtisodiy faollikni oshiradi. Raqamli texnologiyalar bu jarayonni yanada tezlashtirishga yordam bermoqda — masofaviy identifikatsiya, mobil ilovalar orqali kredit olish, to‘lovlarini amalga oshirish imkoniyati nafaqat qulaylik, balki iqtisodiy tenglikni ta’minlaydi. So‘nggi yillarda bank tizimida inson kapitaliga investitsiya kiritish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bank xodimlarining malakasini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish, xalqaro moliya standartlariga moslashish kabi jarayonlar bevosita moliyaviy xizmatlar sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa butun bank tizimining raqobatbardoshligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy banklar iqtisodiyotning yuragi hisoblanadi. Ular faqat moliyaviy vositachilar emas, balki innovatsion rivojlanishni rag‘batlantiruvchi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi va iqtisodiy transformatsiyani amalga

oshiruvchi muhim ishtirokchilar sifatida faoliyat yuritmoqda. Bank tizimining strategik rivojlanishi — bu butun iqtisodiyotning yuksalishi uchun poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti — www.cbu.uz
2. Moliya va bank ishi: O‘quv qo‘llanma. Tahrir hay’ati: T. Eshbekov, B. Matkarimov va boshq. Iqtisod-Moliya, 2022.
3. Sh. Xo‘jaev, M. Allayev. Xalqaro bank amaliyoti asoslari. Iqtisodiyot, 2021.
4. Stiglitz, J. E. “Globalization and its discontents.” W.W. Norton company, 2002.
5. Mishkin, Frederic S. “The economics of money, banking, and financial markets.” Pearson education, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi statistik byulletenlari, 2024 yil.